

IJODIY PARVOZ



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy gazetasi

2022-yil iyun № 6 (110) dsmi.uz nashriyot@dsmi.uz ijodiyparvozgazetasi



TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR NATIJASI

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri Abduqodir Toshqulov O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga tashrif buyurdi. Mazkur ta'lim dargohida yaratilgan shart-sharoitlar, amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi bilan yaqindan tanishildi.

Institut rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev boshchiligidagi ta'lim dargohi hududida ekilgan mevali va manzarali daraxtlar, turfa gullar mehmonlarning hayratini oshirdi. Mamlakatimizda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan samarali hamda juda xayrli ishlarga O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti jamoasi ham o'zining munosib hissi qo'shayotgani e'tirof etildi.

Institut rahbariyati, professor-o'qituvchilar, prorektorlar ustoz-murabbiylar o'rtasida o'tkazilgan o'zaro muloqot davomida pedagog xodimlar va talaba yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar, institut faoliyati, bu maskanda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar haqida ma'lumot berildi.

Bu oliy ta'lim dargohida san'at, madaniyat sohasidagi ilm yo'lidagi mashaqqatli mehnat sirlaridan bahramand bo'lgan, ko'plab ustoz-murabbiylar faoliyat yuritishadi. Tomonlarni qiziqtirgan masalalar bo'yicha mulohazalar bildirildi. Shuningdek, mehmonlar institut kutubxonasining ishlash tartibi hamda faoliyatini o'rgandi. Kutubxonadagi sharoitlarni, qulayliklarni ko'rib, bir olam zavq oldi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida axborot-kutubxona faoliyatini yanada rivojlantirish borasida yuksak samarali vazifalar amalga oshirilmogda. Ta'lim dargohida tahsil olayotgan talabalarning axborotdan erkin foydalanishini, milliy qadriyatlar va jahon madaniyati durdonalaridan bahramand bo'lishini ta'minlash masalasiga jiddiy ahamiyat qaratilmogda.

Ayni paytda mazkur ta'lim dargohida axborot-

kutubxona xizmatlari ko'rsatishning sifat jihatdan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylangan. Ushbu ziyo maskanidagi adabiyotlar talabalarning o'qishi, izlanishlari, dars tayyorlashlari uchun beqiyos ahamiyat kasb etmogda. Muloqot davomida o'zining betakror asarlari orqali o'zbek she'riyatida o'chmas iz qoldirgan serqirra ijod sohibi, O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf haqida ham iliq fikrlar bildirildi. Qolaversa, mehmonlar institut qoshidagi suzish havzasida yaratilgan qulayliklar hamda sharoitlarni ham borib ko'rishdi.

Shuningdek, Abduqodir Toshqulov O'quv teatri binosida o'tkazilayotgan Oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlari o'rtasida an'anaviy o'tkazib kelinayotgan "Yilning eng faol talabalar teatr studiyasi" Respublika tanlovida ham ishtirok etdi. Finalda Farg'ona politexnika instituti "Qir guli" talabalar teatr studiyasi tomonidan "Nadomat" spektakli namoyish etildi.

Ta'kidlandiki, O'zbekiston yoshlari erishayotgan muvaffaqiyat va zafarlar zamirida davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan katta g'amxo'rlik, yaratilgan keng imkoniyatlar, yuksak e'tibor mujassamdir. Mamlakatimizda inson manfaatlari oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Milliy ma'naviyatimizni yuksaltirish, ulug' ajdodlarimizning o'lmas merosini o'rganish hamda targ'ib etish, uning mazmun-mohiyatini yoshlarimiz ongu shuuriga singdirishga alohida ahamiyat qaratilayotgani esa yanada quvonarlidir.

O'zDSMI Axborot xizmati

Beg'ubor qalb egalari

1-iyun "Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni" munosabati bilan mamlakatimizning ertasi, kelajagi bo'lgan bolajonlarni bayram bilan muborakbod etamiz. Bolajonlar – xonadonimizning qo'ng'irog'i, umrimizning shamchirog'i, ko'nglimizning ovunchog'i, hayotimiz davomchilaridir. Ularni asrab-avaylash, har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish har bir ota-onaning muqaddas burchidir.

Shu o'rinda aytish lozimki, bolalik – tashvishlardan yiroq, ezgulikka to'la, hayot ummonining musaffo sarchashmasidir. Go'daklarning bahor tongi misol beg'ubor qalbi faqat yaxshiliklarga yo'g'rilgan bo'ladi. Shu sabab ushbu kun eng quvonchli bayram sifatida butun dunyo bo'ylab keng nishonlanadi.



Ma'lumotlarga qaraganda, 1925-yil Jenevada bolalar farovonligiga bag'ishlangan Butunjahon konferensiyasida ta'xis etilgan. Oradan 25 yil o'tib, 1950-yildan bayram sifatida nishonlab kelinadi. 1959-yilda "Bola huquqlari deklaratsiyasi" 1989-yilda "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya" Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilindi hamda keng jamoatchilik tomonidan iliq kutib olingan. Xalqaro YUNISEF tashkiloti ham jahonning Mingyillik dasturlarini ishlab chiqishda ham faollik ko'rsatib, bolalarning ehtiyojlariga mos keladigan sakkizta maqsadlarni mazkur dasturlarga kiritishga erishgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin qabul qilingan ana shunday xalqaro huquqiy hujjatlar dunyodagi millionlab bolalarning hayot tarzini yaxshilashga xizmat qildi. O'tgan vaqt ichida yirik tashkilotlar tomonidan nochor mamlakatlardagi bemor bolalarga katta miqdorda moddiy yordam ko'rsatildi. Bolalarning haq-huquqlari himoya qilinib, ularga qaratilgan har qanday zo'ravonlikka qarshi kurash olib borildi.

Darhaqiqat, yosh avlodni himoya qilish zamirida hayotni, uning davomiyligini asrab-avaylash mohiyati yotadi. Bolalarga ko'rsatilayotgan har qanday g'amxo'rlik esa yurt ravnaqi uchun qo'yilayotgan mustahkam poydevor demakdir. Hech birimizga sir emaski, ba'zi mamlakatlarda bolalardan mehnat kuchi sifatida foydalaniladi. Turli qurolli mojarolarga ishtirok etishi uchun jalb etiladi.

4

30 IYUN – YOSHLAR KUNI

Mamlakatni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari unda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ta'lim tizimi negizida kelajak avlod taqdiri, davlat va xalq manfaatlari mujassam. Har qanday davlatning jahon hamjamiyatida tutgan nufuzi uning intellektual kamoloti bilan belgilanadi. Bugungi avlod intellektual faoliyatini esa madaniy innovatsiya, madaniy ijodsiz tasavvur qilish qiyin.

MADANIY INNOVATSIYA VA YOSHLAR

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida iste'dodli fidoiy ijodkor yoshlar muhim o'rin tutadi. Yoshlarimiz qanchalik zaruriy imkoniyatlarga ega bo'lsa, o'zini yurti, xalqi jonkuyari deb bilsa, ularda shunchalik yurtimizning barcha sohaslarida istiqbolli faoliyat yuzaga keladi. Bu borada yangiliklarga intilish, barcha sohalarda raqobatni kuchaytirish davrida innovatsiyalarning rivojlantirishning keng yo'llarini ochish jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir. Bilamizki, insoniyatning

butun tarixiy yo'lidagi taraqqiyoti jamiyatning barcha a'zolari, ayniqsa yoshlarning ta'lim va tashabbuskorligi bilan belgilanadi. Bu borada davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan iqtidorli yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasida "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlarini to'g'risida"gi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish Vazirligi huzurida "Yoshlar akademiyasi" tashkil etildi.

3

SAN'ATGA MUHABBATIM YOSHLIGIMDA SHAKLLANGAN

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanining Yaypan qishlog'ida tug'ilganman. Bobom choyxonachi edi. Men ham olti yoshimdan choyxona ishlariga jalb qilindim. San'atga muhabbatim shu yerda paydo bo'lgan. Chunki choyxonada mutolaalar, muhokamalar bo'lardi, mashhur hofiz va askiyachilarning chiqishlari namoyish etilardi. Bino devorlarida esa Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ogahiy kabi buyuk mutafakkir ajdodlarimizning suratlarini ko'rdim. O'sha paytlarda meni Boburning surati o'ziga rom etgandi. Ushbu suratga uzoq vaqt termilib qolardim. Ana shu suratdagi insondek kiyinish, shunday bo'lishni orzu qilardim. Endi o'ylab qaragam, oradan yillar o'tib, shu buyuk sismo, shoh va shoir obrazini yaratishimni bola qalbm sezgan ekan.



3



Mening Konstitutsiyam

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda joriy yil 25-iyundan 5-iyulga qadar "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonun loyihasining umumxalq muhokamasi o'tkazilmoqda.

Ana shunday qizg'in muhokama va suhbatlardan biri O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirlida tashkil etildi. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo'yicha bo'lib o'tgan ushbu davra suhbatida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rahbariyati, professor-o'qituvchilar, prorektorlar ustoz-murabbiylar qatnashdi.

Yig'ilish davomida birinchi o'qishda qabul qilingan konstitutsiyaviy qonun loyihasi haqida atroflicha ma'lumot berildi.

Aytilishicha, Konstitutsiyaga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar "Mening konstitutsiyam" platformasi orqali, koll-markaz orqali, mahallalar orqali, mahalliy deputatlik kengashlari hamda elektron pochta orqali kelib tushmoqda.

Ta'kidlandiki, mazkur qonun loyihasi Bosh qomusimizning 64 ta moddasiga 200 dan ortiq o'zgartishlar kiritishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, 6 ta yangi modda bilan 16 ta yangi norma kiritilmoqda. Xususan, pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam ko'rsatishning boshqa turlari rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan kam bo'lishi mumkin emasligi aniq ko'rsatilmoqda.

Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ularning ish haqini kamaytirishning taqiqlanishi, bolalar mehnatining eng yomon shakllaridan foydalanish qonunga binoan javobgarlikka sabab bo'lishi Konstitutsiya bilan belgilangani aytib o'tildi. Qolaversa, nikoh ayol va erkakning ixtiyoriy roziligi, teng huquqlilikka asoslanishi, bolalarning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun barcha sharoitlarni yaratish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishi ekani qayd etildi.

Davra suhbatida davomida so'z olgan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev tomonidan ham konstitutsiyaviy o'zgarishlarda inson manfaatlarini ta'minlash masalasida muhim ahamiyat qaratilganligi e'tirof etildi. Shijoatli yoshlarni tarbiyalash va uchinchi Renessansga zamin yaratish maqsadida maktabgacha ta'lim muassasalar, umumta'lim maktablar, oliy va fan sohalarini rivojlantirish masalalarini konsultatsion darajada mustahkamlanayotgani yanada quvonarli holat ekanligi aytiladi.

Darhaqiqat, 41-moddaning amaldagi tahririda: "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir" deyilgan. Bu moddaning yangi tahriri quyidagicha bo'lishi taklif etilmoqda:

– Har kim ta'lim olish huquqiga ega.
– Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirishga ko'maklashadi.

– Davlat har bir bolaning umumiy o'rta ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirishi uchun majburiy bir yillik tayyorgarlikdan o'tishga bo'lgan huquqini kafolatlaydi.

– Bepul umumiy o'rta ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir.

– Maktab ishlari, maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat nazoratida bo'ladi.

– Ta'lim bo'yicha alohida ehtiyojlarga va individual imkoniyatlarga ega bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim va tarbiya tashkil etiladi.

– Davlat iste'dodli yoshlarning moddiy ahvolidan qat'i nazar, ta'limni davom ettirishini kafolatlaydi.

– Davlatga qarashli, xususiy va boshqa shakldagi ta'lim muassasalari hamda tashkilotlarini rivojlantirish uchun davlat teng shart-sharoitlar yaratadi.

– Pedagog xodimlarning maqomini har jihatdan mustahkamlash jamiyat va davlatning maqsadi hamda mas'uliyatli vazifasidir.

– Pedagog xodimlarning kasbiy faoliyatiga aralashishga, shuningdek ularning xizmat majburiyatlarini bajarishiga monelik qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Konstitutsiyaga quyidagi mazmundagi 41-modda qo'shilmoqda:

– Har kim davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida bepul oliy ta'lim olishga haqli.

– Oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari qonunda belgilangan doirada o'zini o'zi boshqarish, akademik erkinlik, shuningdek tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega.

– Davlat ilm-fanni rivojlantirishga, jahon ilmiy hamjamiyati bilan ilmiy aloqalar o'rnatishga ko'maklashadi.

Aytildiki, 49-moddadagi: "Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidir" degan norma: "Tarixiy, ma'naviy va madaniy meros davlat muhofazasidir", deb o'zgartirilmog'ida. Bu moddaga quyidagicha qo'shimcha qo'shilyapti: "Davlat va jamiyat milliy qadriyatlarini va o'ziga xoslikni himoya qilish, O'zbekiston xalqi madaniy merosining kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish haqida g'amxo'rlik qiladi".

26- va 26-moddalarni qo'shish taklif etilmoqda. Bu yangi moddalarda quyidagilar belgilanmoqda:

– Har bir shaxs advokat yordamidan o'z tanloviga ko'ra hamda jinoyat protsessining har qanday bosqichida foydalanish, shaxs ushlab turilganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran foydalanish huquqiga ega.

– Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ayblovning mohiyati va asoslari to'g'risida xabardor

qilinish, o'ziga qarshi ko'rsatma bergan guvohlar bilan yuzlashtirilish, o'z foydasiga ko'rsatma berayotgan guvohlarning chaqirtilishi huquqiga ega.

– Qonuni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

– Huquqbuzarliklardan va hokimiyatni suiiste'mol qilishdan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jabrlanganlarga odil sudlovdan foydalana olishini va yetkazilgan zarar kompensatsiya qilinishini ta'minlaydi.

– Har bir shaxs davlat organlarining yoki ular mansabdor shaxslarining noqonuniy harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o'rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega.

– Hech kim ayni bir huquqbuzarlik uchun ikki marta javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

– Hech bir shaxs sodir etilgan paytda huquqbuzarlik deb topilmagan qilmish uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

– Qilmish uchun jazoni istisno etadigan yoki yengillashtiradigan qonun orqaga qaytish kuchiga ega.

– Javobgarlikni belgilaydigan yoki og'irlashtiradigan qonun orqaga qaytish kuchiga ega emas.

– Hech bir inson rasmiy ravishda e'lon qilinmagan qonunga asosan hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi mumkin emas.

Muloqotda joylarda aholi bilan bo'layotgan suhbatlarda zarur takliflar o'rganilishi, barcha tarmoqlar rivoji uchun asos bo'ladigan tashabbuslar ishlab chiqilishi zarurligi aytib o'tildi. Konstitutsiya doimo jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarga hamohang ravishda bo'lishi, yangi tarixiy davrga javob berishi hamda mamlakatdagi demokratik o'zgarishlarini davom ettirishga imkoniyat yaratadi.

Eldor SHERMANOV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor

O'zbek badiiy filmlarida kinooperatorlik mahorati

Kino san'ati. Televideniye ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan Iqboljon Meliqo'ziyevning "O'zbek badiiy filmlarida kinooperatorlik mahorati" mavzusidagi dissertatsiyasi muhokamasi bo'lib o'tdi.

Kengash a'zolari, professor-o'qituvchilar, ustoz-murabbiylar, tajribali olimlar, amaliyotchilar, tadqiqotchilar qatnashgan mazkur anjumanda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev so'z olib, mamlakatimizda oliy ta'lim sifatini tubdan yaxshilash yo'nalishida tizimli hamda juda samarali o'zgarishlar bo'layotgani haqida aytib o'tdi. Ilmiy tadqiqot sohasida erishilayotgan natijalar, doktorantlar, yosh olimlarning ilmiy izlanishlari hamda innovatsion ishlanmalarini rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy salohiyatni oshirish borasida amalga oshirilayotgan muhim ishlar xususida fikr yuritildi.

Qayd etilganidek, texnika taraqqiyoti natijasida operatorlik san'ati yuksak darajaga ko'tarildi, desak xato bo'lmaydi. Uning negizini texnika tashkil etsa-da, lekin ijodkorlar salohiyati va ularning izlanishlari film saviyasini belgilaydi. Film voqealari ichida yashagan, ularni qalbidan his qila olgan operatorgina haqiqiy san'at asarini yarata oladi.

Ta'kidlandiki, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "Ovoz rejissorligi va kinoteleoperatorlik mahorati" kafedrasini mudiri, professor v.b. talabgor I.Meliqo'ziyevning

mazkur tadqiqot ishida tasvirning kino badiiy tilini boyitish, film mohiyatini teran taqdim etishdagi ahamiyati, tasviriy yechimda ijodkor mahorati hamda asarga munosabat aks etishi, kinooperatorlar uslubiy o'ziga xosligining namoyon bo'lishi masalalariga e'tibor qaratilgan. Kino san'ati tarixi va nazariyasiga doir tadqiqotlar olib borgan Amerika va Yevropa olimlari Jorj Sadul, Bela Balash, Andre Bazan hamda rus olimlari va kinooperatorlaridan R.Ilin, YE.Goldovskiy, M.Goldovskaya, V.Jeleznyakov, A.Golovnya ishlarida kino badiiy estetikasi yaratilishida kinooperator va kinotexnikaning tutgan o'rni, roli, tasviriy yechim yaratish mahorati, yetakchi ijodkorlar faoliyati kabi qator nazariy-amaliy masalalar o'z aksini topgan. O'zbek kinoshunoslari J.Teshaboyev, H.Akbarov, X.Abulqosimova, N.Karimova, O.Kopadze, S.Xaytmatova tadqiqotlarida kino tarixi va nazariyasi, taraqqiyot yo'li, rejissura, kinodramaturgiya va ekranlashtirish masalalari yuzasidan ilmiy tahlillar amalga oshirilgan.

Tarixiylik, mantiqiylik, tizimli, solishtirma-qiyosiy tahlil, nazariy mushohada, mantiqiy-eksperimental kabi usullar qo'llanilgan. O'lkamiz muhiti, iqlimi, xususiyatidan kelib chiqib, aniq tasviriy dramaturgiyaga



ega bo'lgan vizual obraz va tasviriy yechimda kadr postanovkasi, yorug'lik eksponometridan foydalanish meyorlarini belgilash o'ziga xos xarakterda shakllanganligi hamda tomoshabin idroki, tasviriy an'analar va ekran obrazining o'zaro aloqadorligi hamda badiiy ifoda elementlari korrelyatsiyasiga asoslangan vizual tasvirning dominant ahamiyatiga alohida e'tibor qaratish kabi badiiy-estetik mezonlari paydo bo'lgan isbotlangan. Milliy badiiy kinoda tasviriy yechim yaratish, kinotasvir tilini boyitish, kinooperatorlik uslublari rang-barangligiga erishish, hamda kompozitsiya, nur, soya, rang, optika, kadr formati, rakurs, mezasahna (mezankadr), ramz, metafora vositalaridan badiiy yaxlitlik yo'lida foydalanish mahorati turli o'lchamlar, formatlar, texnik-texnologik omillar hamda ijtimoiy-madaniy muhit ta'sirida namoyon bo'lgani sababli bosqichli xarakter kasb etganligi dalillangan. Kichik hajmdagi (22, 25, 35) obyektiv va stedikam sistemasi mavjud bo'lmagan sharoitda monumental va rangtasvir (jivopis)li vizual obrazlar yaratishga asos solgan o'zbek kinooperatorlik maktabining mumtoz an'analari hozirgi raqamli texnologiyalar davrida turli millatlar (hind, koreys, turk) filmlariga taqlid

qilish hamda videokliplar, reklama roliklariga xos qisqa, yirik planli montaj, ekspressiv yoritish kabi tasviriy usullarga yo'l qo'yish va buning natijasida zamonaviy jarayonlarda kinokadr kompozitsiyasi, badiiy yoritish, ranglar yechimi, metaforik tasvir mezonlari o'zgarib borayotgani sababli ustuvor ahamiyat kasb etishi aniqlangan. Zamonaviy kino ifoda tili, tasviriy yechim yaratish konseptlari, raqamli texnika imkoniyatlari kabi ijodiy-texnologik jihatlar hamda kompozitsiya va tasviriy yechim yaratish, yorug'likni qo'llash kabi badiiy an'analardan foydalanish mezonlari milliy maktab xususiyatlarini saqlab qolish, unga vorisliqlikni shakllantirish kabi yangi davr tamoyillariga bog'liqligi dalillangan.

Qolaversa, kino san'ati texnik – texnologik omillarga bog'liq bo'lgan badiiy ijod turi ekanligini ilmiy-nazariy aspektda baholangan. O'zbekistonda kinooperatorlik sohasining kirib kelish tarixi, asoslari, xususiyatini belgilash va rivojlanish yo'lini aniqlangan. D.Demuskiy va M.Krasnyanskiy kabi soha ustalarining badiiy maktab yaratishdagi faoliyatini tahlil o'rganilgan. O'zbek badiiy kinooperatorlik maktabida Hotam Fayziyev, Abdurahim Ismoilov, Hamidulla Xasanov, Rifqat Ibrohimov kabi ijodkorlar uslubidagi yetakchi jihatlarini belgilash, xususiyatlari ochib berilgan. A.G'aniyev, U.Hamroyev, R.Murodov, A.Arziqulov kabi yosh ijodkorlar ishidagi yangi uslubiy tamoyillarni o'rganish hamda an'analardan davomiylik va vorisliqlik istiqbollari yuzasidan xulosalar ishlab chiqilgan. Respublikada kinooperator kadrlar tayyorlashning holati, xususiyati va muammolarini tahlil qilish asosida amaliyotda qo'llashga doir taklif va tavsiyalar kiritilgan.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, san'at, madaniyat kollejlari milliy kinooperatorlik maktabi xususiyatlarini o'rganishda, shuningdek, "Badiiy kinoda tasviriy yechim", "Kinooperatorlik mahorati", "Kino tarixi va nazariyasi", "Ekran san'atlarida badiiy tanqid va tahlil" kabi fanlardan o'quv qo'llanma va darsliklar yaratishda ma'lumotlar manbai bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kinooperatorlik kasbiy mahoratini mustahkamlash, malakali kadrlar tayyorlash, o'quv-uslubiy, o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratish, mutaxassislik ta'limiga yangi innovatsion pedagogik texnologiyalar olib kiritishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Darhaqiqat, ushbu dissertatsiya badiiy kinodagi tasvir mahorati misolida O'zbekistonda kinooperatorlik jabhasining yuzaga kelishi, rivojlanish yo'li, taraqqiyoti, istiqbolli hamda bartaraf etilishi lozim bo'lgan muammolarini o'rganishga bag'ishlangan ilk tadqiqotdir. Tadqiqotda ilk bor o'zbek badiiy kinosi tarixi kinooperatorlik izlanishlari va ijodiy mahorat nuqtai nazaridan o'rganilib, mazkur sohada milliy maktab shakllangani asoslab berilgan.

Eng muhimi, Iqboljon Meliqo'ziyevning "O'zbek badiiy filmlarida kinooperatorlik mahorati" mavzusidagi dissertatsiya ishi o'zining hajmi, dolzarbligi, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, oldiga qo'yilgan vazifalari va erishilgan maqsadlari bo'yicha O'zR OAKning 17.00.03 – Kino san'ati. Televideniye ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyalarga qo'yilgan barcha talablarga javob beradi.

Anvar QOBILOV tayyorladi.

Musiqaning sirli olami, uning kuchi hamda ta'siri juda cheksizdir. Mukammal darajadagi har qanday sado ajib bir sehr taratib, tinglovchini o'ziga maftun etadi. Shu bois, otashnafas xonishlari kishilar e'tiboriga tushgan san'atkor insoniyatning e'zozidagi ijodkor sifatida e'tirof etiladi. O'zbek musiqasi dunyosida el faxriga aylanib, qalblarda yashab kelayotgan san'atkorlar ko'plab topiladi. Ana shunday betakror ovoz sohiblari va ijrochilikda xalqimizning e'zoziga aylangan hofizlar biri Orifxon Hotamovdir.



O'ZBEKISTON XALQ HOFIZINI YOD ETIB...

Musiqasi san'ati o'zining qadimiyligi, janrlarga boyligi, mazmuni va mohiyatan keng qamrovligi, ommaviyligi bilan jamiyat turmush hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurishida ustoz Orifxon Hotamovning xizmatlari beqiyosdir.

O'zbekiston xalq hofizi, zabardast bastakor, mohir sozanda O. Hotamov o'zbek mumtoz musiqasi ijrochiligi va ijodkorligida o'ziga xos maktab yaratgan san'atkoridir. 1925-yilda Jizzax shahrida Hotamxon Ne'matov oilasida tavallud topgan bu ulug' ijodkor ustoz bastakorlarning uslubiy an'alarini munosib davom ettirib, yuzlab kuy, qo'shiq va ashulalari bilan musiqasi shinavandalarining qalbidan muhim o'rin egallagan. Qolaversa, ancha yillar davomida yosh san'atkorlarga saboq bergan va ularni kasbiy voyaga yetkazish bilan band bo'lgan.

Bolaligidan san'atga oshiftalik oiladan boshlangan, bo'lg'usi bastakor keyingi hayotini Toshkentga bog'ladi. Chunki 1936-yilda Hotamxon Ne'matovning oilasi taqdir taqozasi bilan Toshkent viloyatining Yangiyo'l shahriga ko'chib kelgani ham katta yo'lining boshlanishi bo'ldi. Chunki oilada boshlanib, Toshkentda takomil topgan san'at yo'li bo'lg'usi bastakorni o'z ohangrabosi bilan o'ziga rom qildi. Orifxon maktabda o'qib yurgan paytlarida musiqaga qiziqadi va musiqasi to'garigiga qatnashadi. Qisqa muddat ichida nay, g'ijjak, keyinroq tanbur, dutor chalishni puxta o'zlashtirib oladi. Bo'lg'usi bastakor Orifxon Hotamovni izlanish yo'llari o'z davrining mashhur hofizlari Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqovlar bilan uchrastirdi. Ustozlarning ijro san'ati va bastakorlik ilmi bo'lgan qiziqish ularning ortidan borishga sabab bo'ldi. 1944 yili u Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali drama teatrlarining cholg'u ansambllida ishlay boshladi. Orifxon Hotamov ham Ikkinchi jahon urushi davrida front ortini mustahkamlayotgan yurtdoshlar huzurida o'z chiqishlari bilan xizmat qildi. Teatrda o'ziga xos ijro yo'llari hofizni katta davralarga yo'l ochdi. O'zi ham ayni damlarda bir necha qo'shiqlarga kuy bastalab, ijro etayotgani ustozlari nazaridan chetda qolmadi. El nazariga tusha boshlagan hofiz va cholg'uchi Orifxon Hotamov 1945-yilda O'zbek davlat filarmoniyasiga ishga o'tgan. Ushbu san'at dargohining turli konsert guruhlarida 5 yil davomida o'z zamonasining zabardast ustoz-xonanda va sozandalari bilan birgalikda faoliyat ko'rsatgan.

Taniqli xonanda va sozanda bo'lishlariga qaramay yana ustozlardan ilm olishni maqsad qildi va 1950-yilda Hamza

nomidagi musiqasi bilim yurtiga o'qishga kirgan. Bu dargohda to'rt yil ustoz-sozanda Z. Qodirov sinfida g'ijjak ijrochiligidan tajriba orttirgan. Orifxon Hotamov o'qish bilan bir qatorda sozandalik va ijrochilik faoliyatini davom ettirgan.

Ayniqsa, Jo'raxon Sultonov bilan hamkorlikda samarali ijod qildi. 1954-yilda bilim yurtini muvaffaqiyatli tamomlab, ikki yil maktab to'garaklarida bolalarga musiqasi fanidan saboq bergan. 1956-yili O'zbekiston davlat radiosi qoshidagi tashkil etilgan, Doni Zokirov rahbarligidagi o'zbek xalq cholg'u orkestrida sato cholg'uchisi sifatida faoliyat olib borgan. 1959-yili esa shu dargohda, atoqli bastakor O'zbekiston xalq artisti G. Toshmatov rahbarligida keksa san'atkorlardan tashkil topgan musiqiy-etnografik ansambлга taklif etilgan. O. Hotamov 1976-yildan boshlab maqomchilar ansambllida xizmatini davom ettirgan. Ustoz ijrochilik faoliyati bilan birga (sobiq Mannon Uyg'ur nomidagi) Toshkent teatr va rassomchilik institutida hamda O'zbekiston davlat konservatoriyasi an'anaviy ijrochilik kafedralarida pedagoglik faoliyatini olib bordi, talabalarga an'anaviy xonandalik bo'yicha saboq berdi. Yaratgan asarlari va bastakorlikdagi amaliy faoliyati uchun 1986-yilda O'zbekiston bastakorlar uyushmasiga qabul qilindi. Chunki ustoz bu kunga qadar o'nlab qo'shiqlarga kuy bastalab, ijrosini ham maromiga yetkazib ulgurgan edi. Xizmatlari e'tiborga olinib, 1989-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, shuningdek, 1993-yilda O'zbekiston xalq hofizi sifatida e'tirof etildi. Ustoz nafaqat o'nlab, balki yuzlab yoshlarga san'atga bo'lgan ishtiyoqlarini uyg'otdi, ortidan ergashtirdi. Shu bois 1997-yilda "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi. Bilamizki, Orifxon Hotamov XXI asrga kelib mumtoz musiqasi san'atida benazir bastakor, ustoz san'atkor nomiga muayassar bo'lib, elning e'zoziga erishdi. U musiqasi san'atining sozandalik (tanbur, dutor, sato, skripka, g'ijjak), xonandalik (yakkaxon, hamnafaslik-jo'rovov, katta ashula) sirlarini o'rgangan.

Darhaqiqat, e'tirof etish joizki, Orifxon Hotamov hamnafaslikda birinchi bo'lib O'zbekiston xalq hofizi Eson Lutfullayev keyin Hakimjon Fayziyev va ukalari Ahrorxon Xotamov, farzandlari Ismoilxon, Muxammadxon Xotamovlar bilan birga ijro etishgan va mana shu hamnafaslikni shogirdlariga ham o'tkazgan. Jumladan, O'zbekiston xalq artisti Matluba Dadaboyeva bilan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Mahbuba Hasanovani, O'zbekiston xalq hofizlari Mahmudjon

Yo'ldoshev bilan Mahmud Tojiboyevga, Beknazar Do'stmurodov hamda Soyibjon Niyozov, Abdunabi Ibragimovlarni birgalikda kuylagani ham so'zimizning yaqqol isbotidir.

O. Hotamov ijodida Farg'ona-Toshkent an'analari, ayniqsa, Jo'raxon Sultonovning ijro uslubi muhim o'rin egallaydi. Bastakor o'z ijodida mingdan ortiq mumtoz yo'nalishga mansub asarlar yaratgan. Zamonaviy xonandalik amaliyotida Orifxon Hotamovning yaratgan asarlari va uning maktabiga xos ijro yo'li alohida o'ringa ega hisoblanadi. Ustozning bastakorlik ijodida yuzaga kelgan musiqiy namunalari, avvalo, o'zining mumtozligi bilan ajralib turadi. Ulardagi ohang, so'z va talqiniga xos jihatlari esa ashulalarning jozibadorligini ta'minlaydi.

Qayd etish lozimki, Orifxon Hotamov ashula yozishda, kuyga so'z tanlashga juda ham e'tibor qaratgan. Asliyatdagi so'zga murojaat etishni odat qilgan. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Sakkokiy, Atoy, Fuzuliy, Mashrab, Furqat, Xuvaydo, Ogahiy, Muqimiy, Habibi, Avaz o'tar Chustiy, Nodirabegim, Amiriy, Sharof Rashidov, Said Zunnunova kabi mumtoz shoirlarning g'azal va she'rlaridan foydalangan. Bu bilan ustoz ajdodlarimiz ijodiga ham qayta jon bag'ishlagan, yoshlar ongida mumtoz qo'shiqlarning ohangraboligini ta'minlagan holda yetkazib bergan. Bu bilan mumtoz qo'shiqchilik abadiyligiga ham hissa qo'shgan. She'r va ohang sadolari orqali insonga ruhiy ozuqa beradigan asarning yaratilishi bastakorlik ijodiyoti bilan bog'liqdir. Demak, ustoz ijro maktabining o'ziga xosligi shundaki, yangi bastakorlarning ijodiyotidagi xalq ma'naviyati, madaniyati, tarixi, an'ana va qadriyatlariga haqida ma'lumot beruvchi axborot manbai vazifasini ham o'taydi.

Taniqli bastakor, betakror hofiz Orifxon Hotamov ijro qilgan va bastalagan kuy-qo'shiqlari, musiqiy merosiga e'tibor, ustozning dilbar qo'shiqlariga qilingan murojaatlar ham ul zotning ruhlarini shod qiladi, shogirdlarini kengaytiradi, degan umiddamiz.

Asosiy maqsadimiz ko'p asrlik tarixni bosib o'tib, o'zining muayyan musiqiy an'alarini, ijro maktablarining o'ziga xos yo'llarini avloddan avlodga boyitib kelgan bastakorlik ijodiyoti tarixi va taraqqiyot yo'lini bilib va unga hissa qo'shgan avlodlarning ilmiy va ijodiy merosini avaylab, ardoqlashdan iboratdir.

Beknazar DO'STMURODOV,
O'zbekiston xalq hofizi,
O'zDSMI "Milliy qo'shiqchilik"
kafedrası professorı

SAN'ATGA MUHABBATIM YOSHLIGIMDA SHAKILLANGAN

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat (avvalgi A.N.Ostrovskiy nomidagi Toshkent davlat teatr-rassomlik) institutini tamomlaganimdan keyin Suxondaryo viloyati Termiz shahridagi musiqali drama teatrida ijodimni boshladim. Yoz oylari edi. Hakim at-Termiziy ziyoratgohida bir hamkasbim bilan Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asari asosidagi videofilm uchun aktyorlar sinovdan o'tayotgani haqida gaplashib qoldik. Biroq o'sha kunlarda bu obraz uchun aktyor tasdiqlab bo'lingan, ba'zi sabablarga ko'ra, videofilming tasvirga olish ishlari to'xtab turgandi. 1987-yili O'zbek Milliy akademik drama teatrida ishlayotgan paytlarim. "Bobur" videofilmi uchun qaytadan sinov boshlandi. O'shanda Izzat Sultonning "Kunduzsiz kechalar" spektaklida ikki shaxs - Abdulla Qodiriy hamda Otabek obrazini talqin qilayotgan edim. Rejissyorning tavsiyasi bilan videofilmda suratga tushish uchun sinovga bordim. Buni qarangi, Badiiy kengash mening nomzodimni tasdiqladi. To'g'risi, avvaliga bunday mas'uliyatdan cho'chidim. Chunki asarni xalqimiz o'qib chiqqan va ularning tasavvurida qahramon gavdalanib bo'lgan edi. Men esa o'sha obrazni qayta jonlantirishim kerak. Shukrki, yuzim yorug' bo'ldi. O'shanda o'zimdagi bor mahoratni ishga solganman. Hayotim davomidagi amalga oshgan eng ezgu ishim, davlatimiz, xalqimiz tomonidan ardoqlanganim, Xalq artisti unvoniga loyiq ko'rilganim - barchasi Bobur obrazini yaratganim bilan bog'liqdir. Zahiriddin Muhammad Boburning eng yaxshi fazilatlarini hayotda o'zim uchun o'rnatib, deb bilaman. Qolaversa, farzandlarimning komil inson bo'lib shakllanishida bergan otalik tarbiyamda ham Bobur siymosidagi mardlik, bir so'zlik, atrofidagi insonlar fikrini hurmat qilish, sabrli va kechirimli, el-yurtiga sodiq va mehribon inson bo'lish kabi xislatlarini qo'llayman. Nafaqat aktyor, balki har bir inson buyuk ajdodlarimiz ma'naviy merosini chuqur o'rganishi ularga munosib voris bo'lishi lozim, deb hisoblayman.

"Bobur" videofilmi ekran yuzini ko'rgach, xalq uni yaxshi qabul qildi. Ko'plab xatlar - minglab dil izhorlari, ayniqsa, shu filmdan keyin chaqaloqlarga tarixiy ismlar qo'yilishi ko'paydi. Zahiriddin, Bobur, Humoyun, Oysha Sulton Begim, Gulbadanbegim kabi yurarli unutilayotgan go'zal ismlar yana qaytdi. Bu esa filming xalqiy darajaga kirib bora olganidan dalolat beradi. Xalqimiz mening timsolimda Mirzo Boburni ko'rishga o'rgangan. Bobur esa bag'rikeng, mehribon, mulohazali va bir so'zli inson. U boshqacha bo'lishi mumkin emas. Ammo Mirzoga munosib bo'lishdek og'ir mas'uliyatni ko'tarib yurish ham oson emas. Agarda biror-bir qiyinchilikka duch kelsam, Bobur hazratlari bundan ham og'ir vaziyatlar, turli ziddiyat va to'sqinliklarga qaramasdan bardoshli bo'lganini o'ylab, u kishi chekkan zahmatlar oldida meniki hech narsa emasligini his qilaman.

"Bobur" filmini suratga olish ishlari o'n to'rt oy davom etgan. Sahnalar qadimiy shaharlarimizda, bundan tashqari, Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'iston, Hindiston davlatlarida olindi. Aktyor biror-bir shaxsning obrazini yaratish uchun ko'p qiyinchilikni boshidan kechiradi. Biroq u olamga kirganidan so'ng obrazdan chiqib ketishi qiyin kechadi. Menda ham shunday bo'lgan. O'shanda filmini yillab olish mumkin edi. Chunki barchamiz obrazga kirib olgan edik. Biroq mablag' va ssenariy atigi o'nta seriyaga mo'ljallangan edi. Haligacha eslayman. So'nggi qismni chorbog'dagi sharshara oldida suratga olganmiz. O'sha yerda Bobur lashkariga mardlik va jasoratli bo'lishga da'vat qilib, qo'lidagi qadahni sindiradi. Xullas, shu bilan film tugaydi. Suratga olish ishlari nihoyasiga yetgach, ko'zlarimga yosh kelgan. Agar sen buyuk shaxsning siymosini gavdalanitgan bo'lsang, o'sha insonga loyiq bo'lishing kerak. Bu degani mas'uliyatli bo'lishga chorlaydi. Chunki qayerga bormay shu film haqida so'z ketadi yoki Boburning monologidan o'qishimni aytishadi. Ko'cha-ko'ya yursam ham odamlar menga ana shu obraz tomonidan qaraydi. Shu bois nomunosib xatti-harakat qilishga haqqim yo'qligini his qilaman. Ba'zan davralarda "siz salbiy rol o'ynamang. Sizni Bobur obrazida saqlab qolishni istaymiz", deyishadi. Ko'pincha filimga olish ishlari, albatta, nimadir bahona bilan suratga olish jarayonlari to'xtab qolishi mumkin. Lekin Samarqandda yuzdan ortiq epizodlar, shuningdek, o'n to'rt oy davomida suratga olish ishlari davom etgan bo'lsada, biron marta tasvirga olish to'xtab qolmadi, aksincha, ish jarayonlari o'z-o'zidan yurishib ketardi. Barcha suratga olish jarayonlari omadli kechgan.

Muhammadali ABDUQUINDUZOV,
O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti,
O'zDSMI "Musiqali, dramatik teatr va kino san'ati"
kafedrası professorı

MADANIY INNOVATSIYA VA YOSHLAR

Innovatsion muhitni rivojlantirish va yangi g'oyalarni ommalashtirish borasida sohaga oid zamonaviy ilmiy yondashuvlarni chuqur tadqiq etish ham dolzarb masalalardan biridir. Bundan xulosa chiqarib, aytish mumkinki, madaniy innovatsiyalar va ta'lim sohasida xalqaro maydondagi tendensiyalarni kuzatib tahlil qilib, Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida Uchinchi Renessans po'ydevorini vujudga keltirishda

yoshlarni innovatsion muayyan g'oyalari bilan birlashtirib, ularga motivatsiya berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bizning millatimiz o'tmish madaniyati va qadriyatlariga boy shuningdek, innovatsiya ham insoniyat yaralgandan buyon mavjud. Aniqroq aytadigan bo'lsak, "Bizning ajdodlarimiz ham jamiyat hayotini o'zgartirgan yoki oldinga siljitgan, o'zlari yashagan davrga xos yoki bazaviy innovatsiyalar bilan shug'ullangan.

Masalan, eramizdan avvalgi 1200 yillarda temir qo'yish texnologiyasining yaratilishi insoniyat tarixida juda katta o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Ushbu misoldan iqtisodiyot sohasidagi innovatsiyani ko'rsak, mamlakatimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan Renessans davrida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan kashfiyotlar hamda ilmiy farazlar O'zbekiston kelgusida dunyo tamadduniga navbatdagi salmoqli hissasini qo'shishini kafolatlaydi. Shuning uchun ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash orqali ushbu jabhada yuzaga kelgan bo'shliqni to'ldirish vazifasi bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Bu borada yoshlarning innovatsion salohiyatini oshirishda intellektual ta'lim alohida o'rin tutadi. Ma'lumki, intellektual ta'lim-aqliy salohiyatni

oshirish, bilim berish, individning ruhan rivojlanishiga qaratilgan ta'lim metodlari majmuasi hisoblanadi. Aynan, ushbu vazifani amalga oshirish madaniy innovatsiyalar orqali bajariladi.

Ta'lim jarayoniga davlat siyosati darajasida e'tibor berilayotgan bir paytda ta'lim islohatlari talablaridan kelib chiqib quyidagi takliflarni tavsifiya etish mumkin:

1. Ta'limda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning yanada keng imkoniyatlarini yaratish;
2. Ta'limni zamonaviy kreativ metodlar asosida shaxsiy ehtiyojga aylantirish va mustaqil ta'limni rivojlantirish;
3. Ta'lim jarayonida majburiy itoatkorlikdan ongli intizomlilik tamoyiliga o'tish omillarini yaratish;
4. Ta'lim jarayonini madaniy innovatsiyalar asosida ta'limni shaxsiy

ehtiyojga aylantirish va mustaqil ta'limni rivojlantirish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarning innovatsion salohiyatini oshirish uchun sohadagi zamonaviy xalqaro tendensiyalarni tadqiq etish, yoshlar orasida innovatorlarni izlash va kashf qilish, innovatsiyalarni targ'ib qilish, yoshlarda tashabbuskorlikni rivojlantirish turli zamonaviy kashfiyotlarni targ'ib etish, yangi g'oyalarni yaratish va ularni hayotga tatbiq etish kabi vazifalarni bajarib, yoshlar orasida madaniy ijodkorlik qobiliyatini oshirish vaqti keldi.

Nodira ABDUNAZAROVA,
O'zDSMI "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik"
kafedrası katta o'qituvchisi,
mustaqil izlanuvchi



Davlatimiz rahbari yoshlar kamoloti, ularning jamiyatga sodiq farzand, har jihatdan bilimli bo'lib ulg'ayishi uchun yurtimizda barcha shart-sharoitlarni yaratib bermoqda. Prezidentimiz tomonidan jamiyatimizda kitobxonlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratib, ayniqsa yoshlarning mutolaa madaniyatini yuksaltirish borasidagi bir qator qaror va farmonlari e'lon qilindi, qonun hujjatlari imzolandi va aniq chora-tadbirlar belgilandi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi PQ-4354-son "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori sohaning yangi integratsiya jarayoni bo'ldi, desak to'g'ri bo'ladi.

Mazkur qarorda: axborot-kutubxona faoliyatiga, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, fondlarni o'ldirish va saqlash, kutubxona jarayonlarini avtomatlashirish, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyat, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va rag'batlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirishga jiddiy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

Bugungi kunda yurtimizda yoshlar o'rtasida bosqichma-bosqich kitob tanlovlari o'tkazilmoqda, kitobxon farzandlarimiz rag'batlantirilyapti. An'ana-viy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Yosh kitobxon" tanlovi bilan 2017 – 2019 yillar davomida 2 mln 170 mingdan ortiq yoshlar qamrab olinib, 9 nafar tanlov g'oliblari bo'lgan yosh kitobxonlar Prezident sovg'asi "Spark" avtomashinasi sovrindori bo'ldi.

Bundan ko'zlangan maqsad – ertangi kelajagimiz bo'lgan o'g'il-qizlarimizning qalbini, dunyoqarashini turli xil mafkuraviy xurujlardan asrab qolish hisoblanadi. Kitobga bolalikdan mehr qo'ygan bolada kitobxonlik madaniyati erta shakllanib boradi, dunyoqarashi kengayadi. Zero, kitob farzandlarimiz qalbida insoniylik, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumot olish mumkin bo'lgan hech qanday zamonaviy vosita kitobning o'rnini bosa olmaydi. Kitob o'qish jarayonida paydo bo'ladigan obrazlar, "manzaralar" telekranda namoyish qilinganlardan ko'ra qiziqroqdir.

Kitobxonlik oiladagi, mahalladagi, yon-atrofdagi, muhitga bog'liq. Kitobga e'tibor farzand tarbiyasida ham muhim rol o'ynaydi. Darhaqiqat, kitobni inson tafakkurining qanotlariga o'xshatishgan. Zero tafakkuri, fikr doirasi keng, ma'rifatlil kishilar jamiyatning chinakam boyligidir. Aksincha, hayotda ro'y berib turadigan ayrim noxushliklar ildizi ma'rifatsizlik, kitob o'qimaslikning achchiq mevasi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuni ta'kidlash joizki, kitobsiz ilm bo'lmas, ilmsiz esa rivojlanish bo'lmaydi. Zero, tafakkur va zehn ham kitob o'qish orqali chaxlanadi. Bu borada, kutubxona, kitob, kitobxonlik kabi muqaddas tushunchalar davlat siyosati darajasiga ko'tarilayotganidan dalolatdir.

Yoshlarni kitob mutolaaiga qiziqtirish uchun avvalo, kutubxonalarimiz foydalanuvchilari va ularning qiziqishlarini tahlil qilish katta ahamiyat kasb etadi. Jamiyatimizning qiziqishi, talab va ehtiyoji natijasida kitob mutolaasining rivojlanish ko'rsatgichlari shakllanadi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, joriy tizimda kutubxonachilardan yangicha kasbiy mahorat talab etila boshladi. Elektron kutubxonaning hayotimizning bir bo'lakiga aylanishi kutubxonachilardan zamonaviy innovatsion texnik jihozlarni yaxshi bilishni, internet olamidani xabardor bo'lib, o'z kasibining ustasi bo'lish ma'suliyatini yukladi. Zamon shiddat bilan ilgariyib, rivojlanib bormoqda. Bu kutubxonachidan yoshlar tarbiyasi jarayonida yuksak zamonaviy bilim va ko'nlikma, yuqori salohiyat egasi bo'lishni taqozo etmoqda. Kitobxonlik madaniyatining rivojlanishi jamiyatimizning ma'naviy poydevori bo'lishi bilan birga uning taraqqiyotini belgilovchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Dilnoza QURBONOVA,
O'zDSMI Axborot-resurs markazi uslubchisi



**Norposhsha
HASANOVA:**

"Bolaligim seni sog'indim"

Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali drama teatri aktrisasi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist, ustoz san'atkor Norposhsha Hasanovaning ancha yillardan buyon muxlisiman. Shu bois, u bilan bilan suhbat uyushtirishni rejalashtirib yurgandim. Vaqti kelib, ularga qo'ng'iroq qildim. Ammo xayolimda u kishini suhbatlashishga vaqti bo'larmikan, degan fikr o'tardi. Intervyu berishga rozi ekanliklaridan mamnun bo'lib, teatrga keldim. Suhbatimiz "Qaytar dunyo" spektakli namoyishidan avval bo'lib o'tdi.

– *Suhbat boshida dastlab Norposhsha Hasanovaning bolaligini eslasak.*

– Men bolalikdagi hayotimni eslasam, o'sha davrlarda judayam qiziq bo'lgan, o'ziga xos tarzda kechgan. Ming to'qqiz yuz oltinchi birinchi yil o'n uchinchi iyunda Toshkent viloyat Yangiyo'l tumanida tug'ilganman. Bolalar bog'chasida ham umumta'lim maktabida ham rusiy zabon guruhda tarbiya topdim, tahsil oldim. Lekin aytishim joizki, boshqa tillarda erkin va mufassal so'zlashish, xorijiy tildagi kitoblarni o'qib zavq olish ajoyib bir holatdir. Ammo har bir inson uchun uning o'zligini anglashi faqat ona tili orqali kechishini unutmashligi kerak.

– *Bu sohani tanlayotgan paytingizda ota-onangiz tomonidan qarshiliklar bo'lmaganmi?*

– Ota-onam san'atni juda yaxshi ko'rishar edi. O'sha paytlarda ancha kichik yoshda edim. Lekin onam televizorda "Nurxon" spektaklini ko'rganda, shunaqangi bir hurmat, havas, g'urur bilan Naima Po'latova deganlari hali hamon qulog'im ostida jaranglab turibdi. 1978-yil oliy ta'lim dargohiga hujjatlarimni topshirdim. Biroq imtihondan o'tishga ko'zim yetmagandi. Ammo birinchi tur ijodiy imtihonga kirganimda, "sen o'tding" deyishgan. Endi shodligimni ko'rsangiz, butun dunyoga sig'masdim. Ota-onam eshitib, cheksiz quvongan edi.

– *Teatrga ilk kirib kelgan paytlaringiz qanday bo'lgan. Bu jamoa Sizni qanday qabul qilgan?*

– Oliyog'ni bitirayotganimizda O'zbekiston xalq artisti Baxtiyor Ixtiyorov diplom spektaklimizni ko'rgan va yetti nafar kishini mana shu teatrga olib kelgan. Mahmudjon G'ofurov, Farog'at Rahmatova, Omina Fayozova, Hamza Umarov, Baxtiyor Ixtiyorov, Husan Sharipov, Adiba Mirzayeva, Maryam Ixtiyorova, Naima Po'latova, Sur'at Po'latov, Rayhon To'rayeva, mana shu ustozlarga salom berganimizda ovozimiz zo'rg'a chiqardi. Ularning yonida juda hayajonlanardik.

– *Teatrdagi ilk rolingiz haqida aytangiz.*

– "Xotinimning eri" spektaklida Zarifa ismli ayolning obrazini ijro etganman. Sobirjon Rahimjonov partnyorim bo'lgan. Mana shu sahna asari menga ko'p rollarni mahorat bilan ijro etish imkoniyatini bergan. Bir so'z bilan aytganda, Zarifa obrazi omad olib kelgan. Shu tariqa ko'plab

spektakllarda faqat bosh rollarni ijro etdim. Ikkinchi darajali ro'llarim ham talaygina.

– *Teatrdan umuman rol ijro etmagan paytlaringiz ham bo'lganmi?*

– Shu paytgacha umuman bunday holat bo'lmagan. Har yili to'rtta spektakl olinsa, hammasida ma'lum bir obrazni yaratishga muvaffaq bo'lganman. Aytaylik, o'sha sahna asarlaridan biri bolalar uchun yaratiladi. Unda doim tulki rolini o'ynaganman. Lekin hayotda hech qachon tulki qilmadim. G'iybat, sotqinlik, xiyonatga qo'l urmadim. Buni atrofdegilar ham biladi.

– *Insonlardagi qanday xislatlarni ma'qul ko'rasiz yoki aksincha, qanday xarakterdagi kishilarni yoqtirmaysiz?*

– Yolg'on gapirmaydigan, halol insonlarni qadrlayman, hurmat qilaman. Sotqinlik va xiyonatni kechirolmayman.

– *Sahna va ekran san'ati. Qaysi biri siz uchun muhim?*

– Sahna, men teatrimni judayam yaxshi ko'raman. Shu paytgacha bo'lgan umrim shu dargohda o'tdi. Shu dargohda ota-onamdan keyin yolg'izligimni sezmadim. Umrlari uzoq bo'lsin ilohim, Naima Po'latova, Dilrom Safoyeva ustozlarim qo'llab, doim yonimda bo'lishdi. Baxtinga ustozlarimiz sog'omon bo'lsin.

– *Teatringiz hayotingizda o'rni qanday?*

– Juda yaxshi, o'rinni savol berdingiz. Teatrimning hayotimda o'rni juda beqiyos, shu teatrdaligim eng baxtililar safidaligimdan dalolat. Biz jamoamiz bilan teatrdagi faoliyatimiz davomida xalqimiz uchun yaxshilik, ezgulik, to'g'ri yo'lni tanlash, adshganlarning yo'lidan qaytishi haqida ko'plab asarlarda rollar ijro etdik. Spektakldan keyin bizga rahmat aytgan, hayotimiz uchun muhim eng to'g'ri yo'lni ko'rsatib berdingizlar, degan insonlar ko'p bo'lgan. Aktyor uchun bundan katta mukofot yo'q. Mana shunaqa paytlarda kasbimizdan yanada faxrlanib ketamiz. Har bir inson kitob o'qisa, yaxshilikka undovchi film yoki spektaklni ko'rib, kitobdagi qahramon, spektakldagi aktyorning gaplarini zamiridagi ma'noni anglasa, bunday inson to'g'ri yo'ldan adashmaydi, nazarimda.

O'zDSMI "Sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi" yo'nalishi talabasi Mirjalolbek AKTAMOV suhbatlashdi.

Beg'ubor qalb egalari

1 "Bolalarni himoya qilish kuni" bayramining maqsadi keng jamoatchilik diqqatini bolalarning muammolariga, ularning huquqlarini himoya qilishga, himoyalangan dunyoda yashash imkoniyatlariga, baxtli bolalikka ega bo'lishlariga va o'z mamlakatining to'la-to'kis va xotirjam fuqarosi bo'lib o'sishlariga qaratiladi.

Aytish joizki, bolalarni asrab-avaylash, ularning huquqlarini himoya qilish insonlar uchun hamisha eng muhim masalalardan biri bo'lgan. 1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kunida ham dunyo ahli og'ir ahvoldagi, yordamga muhtoj bolalarga ko'mak berishga oshiqadi.

Turli davlatlarda xalqaro miqyosdagi yirik konferensiyalar, matbuot anjumanlari o'tkazilib, ularda bemor bolalarga yordam berish, salbiy holatlar yuz berayotgan hududlardagi bolalar hayotini asrab qolish kabi dolzarb muammolar muhokama qilinadi. Bayram doirasida xayriya tadbirlari, konsertlar va aksiyalar tashkil etilib, ulardan tushgan barcha mablag'lar bolalar uylari va shifoxonalardagi bolalarning davolanishi uchun sarflanadi. Ko'ngilli kishilar nogironligi bo'lgan bolalar yashaydigan xonadonlarga borib, ularning ahvolidan xabar olishadi. Ota-onasi qarovsiz qoldirgan, mehrga muhtoj bolalarga sovg'alar ulashib, ularning ko'ngillarini

ko'tarishga intiladi.

Bu bayramning eng yoqimli tomoni bolalar yuzidagi baxt va quvonchni ko'rish, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ularni shodlantirish uchun dunyoning 60 dan ortiq davlatida turli ko'ngilochar tadbirlar, bolalar rasmlari ko'rgazmalari, sport musobaqalari, sovrinli tanlovlar tashkil etiladi. Barcha ko'chalar, bog'lar bayram tomoshalari, sho'x kuy-qo'shiqlarga to'ladi. Shu kuni bolalarga rangli pufaklar va sovg'alar tarqatiladi. Teleekranlarda yosh tomoshabinlar uchun qiziqarli dasturlar, bolalarning sevimli film va multfilmlari namoyish etiladi.

Shu o'rinda aytish lozimki, mamlakatimizning barcha hududlarida 1-iyun – "Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni" munosabati bilan bayram dasturlarini tashkil etish an'ana tusini olgan.

Uyushtiriladigan bayramona kechalarda karnay surnay sadolari-yu, doiraning sho'x ohanglari jajji qalb sohiblarini tantanalar sayliga chorlaydi. Turli xil chiqishlar, tomoshalar, konsert dasturlari kichikintoylarga bir olam zavq-u shavq ulashadi. Mana shunday shodiyonalarda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ijodiy jamoasi vakillari ham juda faol ishtirok etishadi. Go'zal bolalikni, ona Vatanni tarannum etuvchi dilrabo kuy-qo'shiqlar, raqslar guldastasi kichik avlodga ko'tarinki kayfiyat ulashadi. Istirohat bog'lari esa bolajonlarning sho'x kulgusi-yu quvnoq qiyiriqlari bilan yanada fayz taratadi. Eng muhimi, har bir bola quvnoq kayfiyatda bo'lib, mehri his qilib yashayotganidan mamnun bo'ladi.

Tahririyat va nashriyat bo'limi jamoasi

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

**Bosh muharrir
Eldor SHERMANOV**

Tahrir hay'ati:

**Sobirjon JUMAYEV
Ma'rufjon YO'LDOSHEV
Rashid USNATOV
Jumagul NISHONOVA**

Mas'ul kotib:

Anvar QOBILOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (71) 230-28-03. (71) 230-28-13.

www.dsmi.uz;
nashriyat@dsmi.uz

**Sahifalovchi:
Abdug'ani SODIQOV**

Gazeta institutning tahririyat va nashriyat bo'limida tayyorlandi. O'lchami – A3, hajmi 2 bosma taboq.
Nusxasi – 319 dona, Narxi kelishilgan narxda.
Chop etishga 29.06.2022 yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta har o'ning oxirgi haftasida «NISO-POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.
Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz –1.